XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I
141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 2-uy, Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-18-66, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2021 - yil 30 - dekabr VI-40-96-7-99-K/21 Nurobod tuman hokimligi

Nurobod tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga 2022-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (06/04-01-32-son) va Davlat soliq qo‘mitasining (19/10-68220-son) 2021-yil 8-noyabrdagi qo‘shma topshirig‘i, Samarqand viloyat hokimining 2021-yil 25-dekabrdagi "Samarqand viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida"gi VI-52-111-7-0-K/21-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashining VI chaqiriq, qirqinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Ibragimovning Nurobod tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga 2022-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi axboroti - ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Nurobod tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun

2022-yilda yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan yer solig‘i stavkalari miqdori 1-ilovaga, Nurobod tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun 2022-yilda jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan yer solig‘i (dehqon xo‘jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlardan tashqari) stavkalar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan xalq deputatlari shahar va tumanlar Kengashlariga 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqi berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimligi matbuot kotibi (E.Pardayev)ga mazkur qarorni “Nurobod” gazetasida rasmiy e’lon qilish, rasmiy e’lon qilingandan so‘ng bir kun ichida tuman hokimligining nurobod.uz rasmiy veb-saytiga joylashtish vazafasi yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **F.Zairov**

Халқ депутатлари Нуробод туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-96-7-99-K/21-сон қарорига
1-илова

2022-yil Nurobod tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun MFYlar kesimida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari

T/r	Mahalla nomi	Nurobod uchun 2022-yil uchun belgilangan soliq stavkasi	2022-yil uchun tasdiqlangan kamaytiruvchi va oshiruvchi stavka	Mahalla kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i, (so‘mda)
1	Amir Temur MFY	35 000 000	1,00	35 000 000
2	Mehnatkash MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
3	Navro‘z MFY	35 000 000	1,00	35 000 000
4	Oqsoy MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
5	Sazag‘on MFY	35 000 000	0,80	28 000 000
6	Sarikul MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
7	Saroy MFY	35 000 000	0,80	28 000 000
8	Tepaqul MFY	35 000 000	0,80	28 000 000
9	Sharq yulduzi MFY	35 000 000	1,00	35 000 000
10	Chortut MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
11	Boshquduq MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
12	Girdiqo‘rg‘on MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
13	Do‘stlik MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
14	Jom MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
15	Oltinsoy MFY	35 000 000	0,80	28 000 000
16	Omondara MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
17	Tegirmonboshi MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
18	Ulus MFY	35 000 000	0,80	28 000 000
19	Xalqobod MFY	35 000 000	0,80	28 000 000
20	Jarquduq MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
21	Yuksalish MFY	35 000 000	0,80	28 000 000
22	Qilichli MFY	35 000 000	0,90	31 500 000
23	Qo‘rg‘oncha MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
24	Mash’al MFY	35 000 000	0,90	31 500 000
25	Nurbuloq MFY	35 000 000	1,00	35 000 000
26	Lolazor MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
27	Nurdum MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
28	Po‘latchi MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
29	Ittifoq MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
30	Ag‘ron MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
31	Arabota MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
32	Buloqboshi MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
33	Bunyodkor MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
34	Navbahor MFY	35 000 000	0,70	24 500 000

35	Olg‘a MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
36	Saxoba MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
37	O‘rtabo‘z MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
38	Chorvador MFY	35 000 000	0,70	24 500 000
39	Nurafshon MFY	35 000 000	0,70	24 500 000

*Nurobod tumani bo‘yicha yuridik shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun 1 ga uchun bazaviy soliq stavkasi 35,0 mln so‘m belgilangan

Халқ депутатлари Нуробод туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-40-96-7-99-K/21-сон қарорига
2-илова

2022-yil Nurobod tumanida mahallalarning iqtisodiy rivojlantirishiga qarab jismoniy shaxslarning yer solig‘ini hisoblash uchun oshiruvchi yoki kamaytiruvchi stavkalar (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan tashqari)

T/r	Mahalla nomi	Nurobod tumani 2022-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi	2022-yil uchun tasdiqlangan kamaytiruvchi va oshiruvchi stavka	Mahalla kesimida 1 kv.m uchun yer solig‘i, (so‘mda)
1	Amir Temur MFY	320,2	0,80	256,2
2	Mehnatkash MFY	320,2	0,70	224,1
3	Navro‘z MFY	320,2	0,80	256,2
4	Oqsoy MFY	320,2	0,70	224,1
5	Sazag‘on MFY	320,2	0,70	224,1
6	Sarikul MFY	320,2	0,70	224,1
7	Saroy MFY	320,2	0,70	224,1
8	Tepaqul MFY	320,2	0,70	224,1
9	Sharq yulduzi MFY	320,2	0,80	256,2
10	Chortut MFY	320,2	0,70	224,1
11	Boshquduq MFY	320,2	0,75	240,2
12	Girdiqo‘rg‘on MFY	320,2	0,70	224,1
13	Do‘stlik MFY	320,2	0,70	224,1
14	Jom MFY	320,2	0,70	224,1
15	Oltinsoy MFY	320,2	0,75	240,2
16	Omondara MFY	320,2	0,70	224,1
17	Tegirmonboshi MFY	320,2	0,70	224,1
18	Ulus MFY	320,2	0,75	240,2
19	Xalqobod MFY	320,2	0,75	240,2
20	Jarquduq MFY	320,2	0,70	224,1
21	Yuksalish MFY	320,2	0,75	240,2
22	Qilichli MFY	320,2	0,70	224,1
23	Qo‘rg‘oncha MFY	320,2	0,70	224,1
24	Mash’al MFY	320,2	0,70	224,1
25	Nurbuloq MFY	320,2	0,80	256,2
26	Lolazor MFY	320,2	0,70	224,1
27	Nurdum MFY	320,2	0,70	224,1
28	Po‘latchi MFY	320,2	0,70	224,1
29	Ittifoq MFY	320,2	0,70	224,1
30	Ag‘ron MFY	320,2	0,70	224,1

31	Arabota MFY	320,2	0,70	224,1
32	Buloqboshi MFY	320,2	0,70	224,1
33	Bunyodkor MFY	320,2	0,70	224,1
34	Navbahor MFY	320,2	0,70	224,1
35	Olg‘a MFY	320,2	0,70	224,1
36	Saxoba MFY	320,2	0,70	224,1
37	O‘rtabo‘z MFY	320,2	0,70	224,1
38	Chorvador MFY	320,2	0,70	224,1
39	Nurafshon MFY	320,2	0,70	224,1

*Nurobod tumani bo‘yicha 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi 320,2 so‘m etib belgilangan